



THE INITIAL RESPONSE TO NATURAL DISASTERS IN THE CIVIL DEFENSE SYSTEM OF UZBEKISTAN

Boburjon Teshaboyev

Senior Lecturer of the Department

Academy of the Ministry of Emergency Situations

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: natural disaster, civil defense, military period, earthquake, flood, accident, lifeguard.

Received: 25.08.25

Accepted: 26.08.25

Published: 27.08.25

Abstract: This article is devoted to the historical development of the civil defense system of Uzbekistan in response to natural disasters. The study analyzes hazardous natural events and their impacts on human life, the environment, and the economy, as well as global and local statistical data. The transformation of the civil defense system from a local air defense structure to a system capable of responding effectively to natural disasters is thoroughly examined. Case studies include the 1964 Zarafshan River flood, the 1966 Tashkent earthquake, and the 1967 floods in Andijan and Fergana regions. The study highlights the active participation, courage, and efficiency of civil defense personnel and organizations in mitigating natural disasters, as well as the measures taken at the republican and Union levels. The results demonstrate that the formation of the civil defense system represents an evolutionary process of ensuring human safety, with significant social, economic, and political relevance in both wartime and peacetime.

O‘ZBEKISTON FUQARO MUHOFAZASI TIZIMINING ILK TABIIY OFATLARGA QARSHI KURASHI

Boburjon Teshaboyev

FVV Akademiyasi kafedra katta o‘qituvchisi

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: tabiiy ofat, fuqaro mudofaasi, harbiy davr, zilzila, suv toshqini,

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekiston fuqarolar mudofaasining tabiiy ofatlarga qarshi

avariya, qutqaruvchi.

kurashdagi tarixiy rivojlanishini o'rganishga bag'ishlangan. Ishda tabiiy xavfli hodisalar va ularning inson hayoti, atrof-muhit va iqtisodiyotga ta'siri, shuningdek, global va mahalliy statistik ko'rsatkichlar tahlil qilinadi. Maqolada Fuqaro mudofaasi tizimining mahalliy havo hujumidan mudofaaga asoslangan tizimdan sifat jihatidan yangi bosqichga – tabiiy ofatlarga qarshi kurashga transformatsiyasi batafsil yoritilgan. Misol tariqasida, 1964-yilda Zarafshon daryosidagi suv toshqini, 1966-yil Toshkent zilzilasi hamda 1967-yil Andijon va Farg'ona viloyatlaridagi toshqinlar kabi voqealar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Fuqaro mudofaasi tashkilotlari va xodimlarining tabiiy ofatlarni bartaraf etishdagi faol ishtiroki, ularning shaxsiy jasorati va mehnat samaradorligi, shuningdek, respublika va Ittifoq darajasida ko'rilgan chora-tadbirlar amaliy misollar bilan ko'rsatiladi. Ish natijalariga ko'ra, Fuqaro mudofaasi tizimining shakllanishi inson xavfsizligini ta'minlashning evolyutsion jarayoni bo'lib, harbiy va tinchlik davrlarida ham ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi.

ПЕРВЫЕ МЕРЫ ПО БОРЬБЕ С ПРИРОДНЫМИ КАТАСТРОФАМИ В СИСТЕМЕ ГРАЖДАНСКОЙ ОБОРОНЫ УЗБЕКИСТАНА

Бобуржон Тешабоев

Академия МЧС, старший преподаватель кафедры

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Стихийное бедствие, гражданская оборона, военный период, землетрясение, наводнение, авария, спасатель.

Аннотация: Данная статья посвящена историческому развитию системы гражданской обороны Узбекистана в борьбе с природными катастрофами. В исследовании анализируются опасные природные явления и их влияние на жизнь человека, окружающую среду и экономику, а также приводятся глобальные и локальные статистические данные. Подробно рассматривается трансформация системы гражданской обороны от системы местной противовоздушной обороны к системе, эффективно реагирующей на природные катастрофы. В качестве примеров рассматриваются наводнение на реке Зарафшан в 1964 году, ташкентское землетрясение 1966 года и наводнения 1967

года в Андижанской и Ферганской областях. Особое внимание уделяется активному участию, мужеству и эффективности персонала и подразделений гражданской обороны в ликвидации последствий природных катастроф, а также мерам, принятым на республиканском и союзном уровнях. Результаты показывают, что формирование системы гражданской обороны является эволюционным процессом обеспечения безопасности человека и имеет значительное социальное, экономическое и политическое значение как в военное, так и в мирное время.

Kirish. Fuqaro mudofaasining asosiy vazifasi – aholi, iqtisodiy obyektlar va atrof-muhitni favqulodda vaziyatlar va tabiiy ofatlar oqibatlaridan himoya qilishdir. Ilmiy adabiyotlarda tabiiy xavfli jarayonlar va hodisalar inson hayoti va iqtisodiyotga salbiy ta’sir ko’rsatadigan asosiy omillar sifatida ko’riladi. So’nggi o’n yilliklarda dunyo bo’yicha tabiiy ofatlar soni va ulardan keladigan iqtisodiy zarar sezilarli darajada oshgan; masalan, 2021-yilda 432 ta tabiiy ofat qayd etilib, ular 10,5 ming kishining hayotiga ziyon yetkazgan va 252,1 milliard dollar miqdorida iqtisodiy zarar keltirgan [8]. Shu bilan birga, O‘zbekistonda ham har yili tabiiy ofatlar yuz minglab insonlarga zarar yetkazadi va iqtisodiyotga sezilarli ta’sir ko’rsatadi.

Dolzarbliigi: Fuqaro mudofaasining tabiiy ofatlarga qarshi samarali tizimi bugungi kunda global iqlim o’zgarishi, suv toshqinlari, qurg’oqchilik va boshqa favqulodda vaziyatlar xavfi oshgan bir davrda ayniqsa dolzarb ahamiyatga ega. Tabiiy ofatlar oqibatlarini oldini olish va ularni bartaraf etish tizimining rivojlanishi davlat xavfsizligi va aholi hayotini himoya qilish nuqtai nazaridan muhim hisoblanadi.

Maqsad: Maqolaning asosiy maqsadi – O‘zbekiston Fuqaro mudofaasi tizimining tabiiy ofatlarga qarshi dastlabki faoliyati, uning tashkil etilishi va rivojlanishining tarixiy-tahliliy asoslarini o’rganish.

Vazifalar:

1. Fuqaro mudofaasi tizimining tashkil etilishi va faoliyatini tarixiy kontekstda yoritish;
2. Tabiiy ofatlarga qarshi birinchi tajribalari misolida tizimning samaradorligini tahlil qilish;
3. 1964, 1966 va 1967-yillardagi tabiiy ofatlar hodisalarida Fuqaro mudofaasi bo‘linmalarining roli va ish faoliyatini ko’rsatish;

4. Tizimning bugungi fuqarolar muhofazasi va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik nuqtai nazaridan ahamiyatini aniqlash.

Metodlar. Tadqiqotda tarixiy-hujjatli tahlil, arxiv materiallari, statistik ma'lumotlar va ilmiy adabiyotlarni o'rganish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, konkret tabiiy ofatlar hodisalari misolida tizimning amaliy ishlashi va samaradorligi tahlil qilindi.

Ilmiy yangilik: Maqolada O'zbekiston Fuqaro mudofaasi tizimining tabiiy ofatlarga qarshi dastlabki faoliyati va uning rivojlanishi tarixiy manbalar asosida tahlil qilinib, tizimning zamonaviy fuqarolar muhofazasi va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlikdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslandi.

Natija. Tadqiqot O'zbekiston Fuqaro mudofaasi tizimining tabiiy ofatlarga qarshi samarali ishlash mexanizmlarini va tarixiy rivojlanish bosqichlarini aniq ko'rsatadi hamda bugungi kun uchun tizimni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asos yaratadi.

Ilmiy adabiyotlarda halokatli hodisalarni tasvirlash bo'yicha ko'plab tushunchalar mavjud. Bulardan eng ko'p qo'llaniladigan xavfli tabiiy jarayon va hodisalardir. Tabiiy xavfli hodisa va jarayonlarning kelib chiqishi o'zining intensivligi, ko'lami yoki davomiyligi bo'yicha insonlarning sog'lig'iga hayot faoliyati xavfsizligiga, atrof-muhitga va iqtisodiy obyektlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi [1]. Ko'lamiga ko'ra tabiat kuchlarining halokatli ta'sirlari "favqulodda vaziyat", "tabiiy ofat" va "falokat" bo'lishi mumkin[2].

2021-yilda sodir bo'lgan tabiiy ofatlarning umumiy soni va ulardan ko'rilgan iqtisodiy zarar so'nggi 10 yildagi o'rtacha ko'rsatkichlardan nisbatan yuqori bo'ldi. O'tgan yili dunyoda 432 ta tabiiy ofatlar qayd etilgan. Ular 10,5 ming kishini hayotda olib ketdi, 101,8 million kishi zarar ko'rdi va natijada uysiz qolishga hamda yashash joylarini o'zgartirishga majbur bo'ldi. Bunday tabiiy ofatlardan jami ko'rilgan iqtisodiy zarar 252,1 milliard dollarga baholanmoqda [3].

O'zbekistonda har yili tabiiy ofatlar o'rtacha 1,4 million kishiga zarar yetkazadi va deyarli 3 milliarda dollar zarar yetkazadi. Bir marta kuchli suv toshqini yoki kuchli qurg'oqchilik iqtisodiyotga yalpi ichki mahsulotning taxminan 5 foizini yo'qotishi mumkin [4].

Harbiy davr sharoitida davlatning hayot faoliyatini ta'minlash uchun afzalliklaridan, fan va texnika yutuqlaridan g'oyat oqilona foydalanish imkonini beradigan prinsipial yangi mudofaa tizimini tashkil etish zarurati vujudga keldi. Mahalliy havo hujumidan mudofaa tizimini jiddiy ravishda qayta tashkil etish talab etildi va 1961-yilning iyulida uning o'rniga mamlakat Fuqaro mudofaasi tashkil etildi. Sobiq Ittifoq Fuqaro mudofaasi shtabi barcha ittifoqdosh va avtonom respublikalar, o'lkalar, viloyatlar, shaharlar, tumanlar va xalq xo'jaligining yirik obyektlarida tashkil etildi. Fuqaro mudofaasi tizimi butun hududni qamrab oldi va hududiy ishlab chiqarish

tamoyiliga muvofiq qurila boshlandi. Fuqaro mudofaasi tadbirlariga yuqoridan quyigacha xalq deputatlari Sovetlari yo‘li bilan ham, shuningdek ministrlklar, idoralar, korxonalar, o‘quv yurtlari, sovxozlar va kolxozlar yo‘li bilan ham rahbarlik qilina boshlandi.

Tinchlik davrida fuqaro mudofaasi bo‘linmalari va noharbiy tuzilmalarning jangovar tayyorgarligining jiddiy sinovi ularning tabiiy ofatlar va ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar oqibatlarini bartaraf etishdagi faol ishtirokidir.

1964-yilning 24-aprelida Samarqanddan 60 kilometr naridagi Zarafshon daryosida tog‘ jinslari o‘pirilib, balandligi 200 metr va kengligi 400 metr tug‘on suvni to‘sib qo‘ydi. Daryoning quyi oqimida joylashgan Samarqandni suv bosish xavfi vujudga keldi. Samarqand viloyati partiya komiteti, viloyat ijroiya komiteti va fuqaro mudofaasi shtabi darhol xavfning oldini olish tadbirlarini ishlab chiqdilar. Aholini ko‘chirib olib ketish uchun transport vositalari safarbar etildi, aholi o‘rtasida katta siyosiy ishlar olib borildi. Fuqaro mudofaasi xodimlari, bo‘linmalari va tashkilotlarining kuch - g‘ayratlari bilan mashaqqatli baland tog‘ sharoitlarida qisqa muddat ichida aylanma kanal qurildi. Milliardlab kubometr suv yorib o‘tishining oldi olindi, xalqning irodasi tabiiy ofatdan ustun chiqdi [5].

1966-yil 26-aprel mahalliy vaqt bilan soat 5 dan 22 minut 52 sekund o‘tganda toshkentliklarni kuchli yer osti silkinishi uyg‘otib yubordi. «Toshkent» markaziy seysmik stansiyasining ma’lumotlariga ko‘ra, tektonik zilzila manbalari bevosita shahar markazi ostida 8 kilometr chuqurlikda bo‘lgan. Bu esa Toshkentning markaziy qismida 8 ballga yaqin kuch bilan yer silkinishiga sabab bo‘ldi. Zilzila oqibatida shahar markazidagi bir qancha uy-joylar, asosan eski tipdagi binolar, kasalxonalar, maktablar, fabrikalar, davlat va jamoat muassasalarining binolari vayron bo‘ldi. Tabiiy ofat toshkentliklarning irodasini buka olmadi. Hukumat zudlik bilan ko‘rgan tadbirlari tufayli zilziladan shikast ko‘rgan ming-minglab oilalar chodir shaharchalarga va maxsus tashkil etilgan yotoqxonalariga joylashtirildi [6].

Barcha qardosh respublikalardan qurilish materiallari, turli dori-darmonlar ortilgan o‘nlab eshelonlar quruvchilar bilan birga Toshkentga kela boshladi. Toshkentni qurishda Ittifoqdagi barcha respublikalarning binokorlari ishtirok etdilar. Ittifoqning ko‘pgina shaharlari o‘z zimmalariga Toshkentda yangi - yangi kvartallar va mikrorayonlar barpo etib berish majburiyatini oldilar.

O‘zbekiston SSR va qardosh respublikalar quruvchilarining fidokorona mehnati, fuqaro mudofaasi barcha tashkilotlari va xizmatchilarining faol ishtiroki tufayli Toshkent mamlakatning eng ko‘rkam shaharlaridan biriga aylana bordi. Dahshatli birinchi silkinishdan keyin toshkentliklarga yordamga kelganlar orasida Turkiston xodimlari ham bor edi. Ular Fuqaro mudofaasi tashkilotlarining xodimlari bilan birga hayotlarini xavf ostida qoldirib odamlar va

zarur buyumlarni buzilgan binolardan olib chiqdilar, kechayu-kunduz soqchilikni tashkil etdilar, vayron bo'lgan kvartallarda tezlik bilan chodir shaharchalarni bunyod etdilar, bolalar muassasalariga yordam berdilar.

Toshkentga Moskva, Leningrad, Kiyev, Belorussiya, Prikarpatye, Boltiq bo'yi harbiy okruglarining, shuningdek Boltiq Flotining eng yaxshi harbiy quruvchilari yetib keldilar. Bularning ishiga armiya generali N. G. Lyashchenko, general-mayor A. V. Debalyuk va general-mayor-injener A. V. Fyodorov boshchilik qildilar.

Harbiy gimnastyorkadagi yigitlar zavod va fabrikalarning ishchilari, talabalar bilan yonmayon turib jazirama issiqda, chang-to'zonda vayronalarni tekislab, qardosh respublikalar quruvchilari ish boshlashi uchun maydonchalarni ochdilar. Qardosh respublikalardan kelayotgan eshelonlarning keti uzilmasdi. «O'ttiz to'rt»lar (T-34) shiddat bilan o'zini avariya xolidagi uylarga urib, chang-to'zonga ko'milib, qurilish uchun maydon ochganligi minglab toshkentliklarning yodida. Askarlar xalq oldidagi burchlarini sharaf bilan bajardilar.

Avvaliga Sergeli tumanida 1966-yili 50 ming kvadrat metr va 1967-yilning birinchi choragida yana shuncha uy-joy qurishga qaror qilingan edi. Biroq shahar hamon yer osti silkinishlaridan larzaga kelar, yana ming-minglab kishilar boshpanasiz qolayotgan edi. Shuning uchun 1966-yili 100 ming kvadrat metr,

1967-yilning birinchi choragida esa 50 ming kvadrat metr uy-joyni foydalanishga topshirishga qaror qilindi. Binokorlar zo'r g'ayrat bilan mehnat qilishlari kerakligini ravshan anglar edilar.

1966-yilning 28-aprelida Toshkentda respublika partiya faollarining yig'ilishi bo'ldi. Yig'ilishda so'zga chiqqan KPSS MKning Bosh sekretari Leonid Ilich Brejnev o'z nutqida zilzila oqibatlarini tugatish dasturini bayon qilib, partiya, sovet, jamoat, qurilish tashkilotlarining yana ham ko'rkam, yana ham mustahkam har qanday zilzilaga bardosh bera oladigan yangi Toshkentni barpo etish borasidagi vazifalarini belgilab berdi [7]. Shu munosabat bilan shaharning barcha tumanlarida partiya faollari yig'ilishlari bo'lib o'tdi.

O'zbekiston mehnatkashlari KPSS Markaziy Komiteti va Sobiq Ittifoq Ministrlar Sovetining "Toshkent shahridagi zilzila oqibatlarini tugatishda O'zbekiston SSRga yordam berish to'g'risida" gi qarorini zo'r mamnuniyat bilan kutib oldilar.

Avariya oqibatlarini tugatish-tiklash komandalari zilzilaning ikkinchi kuniyoq asosiy aloqa tarmoqlarini tikladilar. Tibbiyot tuzilmalari sanitariya drujinalari bilan kuchaytirilgan birinchi tibbiy yordami otryadlari yangidan ajratib berilgan binolarda va chodirlarda 3 ming bemorga mo'ljallangan o'rin hozirladilar. Shoshilinch tashkil etilgan ko'chma dorixonalar chodir shaharchalarga xizmat qilib turdi. Chodir shaharchalarda 29 ta tibbiyot punkti joylashtirildi.

Tibbiyot instituti va tibbiyot bilim yurti yuqori kurs talabalarining kechayu kunduz navbatchiligi tashkil etildi. Qizil Hoch va Qizil Yarim Oy jamiyatining 3500 dan ortiq faollari tibbiyot hodimlariga yordam berdilar. Tibbiyot tashkilotlari doimo shay bo'lib turdilar. Ular har bir kuchli silkinishdan keyin eng ko'p vayrongarchilik ro'y bergan joylarga borib, zarar ko'rganlarga yordam ko'rsatdilar.

Fuqaro mudofaasi tashkilotlari shaxsiy tarkibi ma'naviy-siyosiy va ruhiy jihatdan chiniquanligi Toshkent zilzilasi oqibatlarini tugatish chog'ida yaqqol namoyon bo'ldi. Shaxsiy tarkib jasur va mardona harakat qildi, zo'r g'ayrat bilan fidokorona ishladi, ular tashabbus, mardlik, yuksak onglilik va intizom namunalari ko'rsatdilar. Vaziyatning murakkabligi, tabiiy ofatga qarshi kechayu-kunduz kurashayotgan kishilarga siyosiy ta'sirni kuchaytirish zarurligi barcha bo'g'inlarda siyosiy ishning uzluksizligi to'g'risidagi, bu ishning eng samarali forma va metodlaridan foydalanish haqidagi masalani ko'ndalang qilib qo'ydi. Fuqaro mudofaasi shtablari tuzilmalar xodimlari oldiga tabiiy ofat oqibatlarini juda qisqa muddatda tugatish vazifasini qo'ydi. Buning uchun har bir kishi vaqt va charchash nima ekanligini bilmay, butun kuchini sarflab fidokorona mehnat qilishi lozim edi.

1967-yilning 27-apreldan 28-aprelga o'tar kechasi kuchli yomg'ir natijasida Andijon, Farg'ona, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarining soylarida sel kelib, toshqin vujudga keldi. Andijon soyi toshib ketdi, Janubiy Fargona kanalida to'g'onni suv urib ketdi. Toshqin natijasida Andijon, Lenin, Xo'jaobod, Qo'rg'ontepa tumanlari hududining bir qismi zarar ko'rdi. Ko'pgina binolar va inshootlar shikastlandi. Ko'plab ekinzorlar suv ostida qoldi.

Andijon viloyat partiya komiteti va viloyat ijroiya komitetining qaroriga muvofiq yaqin atrofdagi shaharlar va tumanlardagi mehnatga qobiliyatli barcha aholi darhol oyoqqa turg'izilib, tabiiy ofat oqibatlarini tugatishga safarbar etildi. Qutqaruv otryadlari yordamida minglab oilalar suv bosgan hududlardan xavfsiz tumanlarga ko'chirildi.

Sel kelishi natijasida Farg'ona vodiysidagi aholi punktlarini suv bosish xavfi tug'ilgan 1967 - yilning may oyida irrigatsiya xizmati tashkilotlari zo'r g'ayrat va uyushqoqlik bilan harakat qildilar. Ularning kuch-g'ayrati bilan 29-maydan 30-maygacha Marhamat tumanida sel oqimi Karkidon suv omboriga burib yuborildi va katta hudud suv ostida qolishining oldi olindi.

Shu yili Toshkent viloyatida ham og'ir vaziyat vujudga keldi. Toshkent viloyat partiya komiteti bilan viloyat ijroiya komiteti toshqin yoyilishining oldini olish, zarar ko'rgan aholiga yordam berish va tabiiy ofat oqibatlarini tugatish uchun favqulodda choralar ko'rdilar. O'rta Chirchiq tumanining o'zidagina ishlarda 24 ta qutqaruv otryadi va DOSAAFning qutqaruv komandalari ishtirok etdi. Davlat muassasalari, maktablar, kasalxonalar va aholi xavfli hududlardan ko'chirib olib ketildi. Shuningdek tabiiy ofatga yo'l qo'ymaslik sohasida katta

tayyorgarlik ishlari olib borildi. Masalan, Xorazm viloyatida 1969 - yilning yanvar oyidan mart oyigacha eski himoya dambalari tamirlandi, tiklandi va yangilari qurildi. Bu ishda kolxozchilar, sovxozlarning hamda boshqa tashkilotlarning ishchilaridan iborat Fuqaro mudofaasi tashkilotlarining shaxsiy tarkibi ishtirok etdi. Xo'jalik, ta'minot organlari ishlovchilarni ko'chma vagonchalar, issiq kiyim-kechak, tibbiyot xizmati va issiq ovqat bilan ta'minlash borasida g'amxo'rlik qildilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak. Fuqaro mudofaasi tizimining paydo bo'lishi insonning abadiy va eng muhim ehtiyojlaridan biri, harbiy davrda ishonchli xavfsizlikni ta'minlashning evolyutsion, tabiiy jarayonidir. Mahalliy havo hujumidan mudofaa tizimining fuqaro mudofaasiga aylantirilishi uning rivojlanishida sifat jihatidan yangi bosqichning boshlanishi, eng avvalo butun aholi, obyektlar va xalq xo'jaligi tarmoqlarini ommaviy qirg'in qurollaridan va har tomonlama himoya qilish bo'yicha izchil qarashlar tizimini rivojlantirish va shakllantirishni ko'rsatdi. Juda katta ishlar amalga oshirilganiga qaramay, Fuqaro mudofaasi tizimida kamchiliklar, foydalanilmagan zahiralalar ham mavjud edi. Birinchi navbatda fuqaro mudofaasining barcha bo'g'inlarini tajribali xodimlar bilan mustahkamlash zarur edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Природные опасности и общество. Тематический том / Под ред. В.А. Владимирова, Ю.Л. Воробьева, В.И. Осипова. М.: КРУК, 2002. С. 239.
2. Межучрежденческая целевая группа по уменьшению опасности бедствий (2001) Рамки для действий по осуществлению международной стратегии уменьшения опасности бедствий (МСУОБ): http://www.un.org/russian/conferen/wcdr/disaster_framework
3. <http://plus-one.ru/society/2022/10/13/priroda-katastrof>
4. <http://www.gazeta.uz/ru/2021/11/23/emergencies/>
5. С.Ахунджанов. Гражданской обороне Узбекиской ССР-пятьдесят лет.. Т.: "Знание", 1982.-17 стр.
6. Ташкент-город братства.Т.1969.
7. "Правда Востока", 25 марта 1982 г
8. Алексеев, В.В. Экстремальные природные явления и их последствия. — Москва: Наука, 2018.